

LINGVOASSOTSIATIV TAHLIL ASOSIDA OLAMNING MILLIY-MADANIY
MANZARASINI TADQIQ ETISH

Mirzaaxmedov Mirjalol Mansurjon o'g'li

Ingliz tili amaliy kursi kafedrasida o'qituvchisi, FarDU

E-mail: m.m.mirzaahmedov@pf.fdu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada olamning milliy madaniy manzarasi lingvoassotsiativ tahlil orqali tadqiq etiladi. Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, til ichidagi assotsiativ bog'lanishlar milliy madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar va xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. Lingvoassotsiativ tahlil usullari orqali turli tillarda milliy madaniy xususiyatlar, mentalitet va ijtimoiy normativlar qanday ifodalanishini aniqlash mumkin. Tadqiqot natijalari milliy madaniy identifikatsiyani chuqurroq tushunishga, shuningdek, tillararo farqlar va o'zaro ta'sirlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu tahlil xorijiy til o'qitish, tarjima va madaniy kommunikatsiya sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Milliy madaniy manzara, Lingvoassotsiativ tahlil, Til va madaniyat, Madaniy identifikatsiya, Lingvokulturologiya, Assotsiativ bog'lanishlar, Mentalitet, Madaniy kommunikatsiya*

Milliy-madaniy manzara — har bir xalqning dunyoni qabul qilishi, tushunishi va tasvirlash uslubini ifodalovchi konseptual tizim bo'lib, bu tushuncha til, madaniyat, tarix, an'ana va mentalitet kabi omillar bilan shakllanadi. Milliy-madaniy manzara xalqning dunyo haqidagi tasavvurlarining yig'indisi desak ham bo'ladi, u milliy ong va o'sha davlatning mentaliteti bilan bog'liq. Olamning milliy-madaniy manzarasi haqidagi tushuncha va tamoyillar turli davrlardan beri rivojlanib kelgan bo'lib, ular asosan quyidagi davrlarda yuksak jihatdan ma'noga ega bo'lgan.

I. Antik davr: Dunyoni til orqali anglash g'oyalari. Platon va Aristotel (miloddan avvalgi IV asr)

Antik falsafada olamni anglash jarayoni haqida dastlabki nazariyalar ilgari surilgan. Platon va Aristotel dunyoni idrok etish jarayonini til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik orqali izohlashga harakat qilgan.

Platon tilni faqat aloqa vositasi emas, balki dunyoni bilish vositasi deb hisoblagan.⁵

Aristotel esa til orqali inson tafakkuri shakllanishini ta'kidlab, til birliklarining dunyoni ifodalovchi funksiyasini o'rgangan.⁶

II. O'rta asrlar va Uyg'onish davri. Til, tafakkur va madaniyat bog'liqligi. Ibn Sino va Al-Farobiy (IX–X asrlar)

Sharq mutafakkirlari inson tafakkuri va til o'rtasidagi aloqani chuqur o'rganib, milliy mentalitet va madaniyatning shakllanishida tilning ahamiyatini ta'kidlagan.

Ibn Sino (980–1037) fikricha, til insonning ichki tafakkur jarayonini ifodalovchi vosita bo'lib, u milliy madaniyat bilan chambarchas bog'liq.⁷

⁵ Platon. Kratil (Mil. av. IV asr)

⁶ Aristotel. Organon (Mil. av. IV asr)

⁷ Ibn Sino. Kitob ash-Shifo (XI asr)

Al-Farobiy (872–950) esa tilning ijtimoiy funksiyasini o'rganib, uni madaniyat va jamiyat bilan bog'liq deb bilgan.⁸

III. Yangi davr falsafasi: Lingvistik nisbiylik va madaniy tafakkur. Vilgelm fon Gumboldt (1767–1835)

Nemis faylasufi va tilshunosi V.fon Gumboldt milliy-madaniy manzara tushunchasining ilmiy asoslarini yaratgan olimlardan biridir. Unga ko'ra: “Til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning ruhini ifodalovchi tizimdir. Har bir xalq o'z ona tili orqali dunyoni o'ziga xos tarzda tushunadi. Til milliy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi.”⁹

IV. XX asr: Konseptual olam va lingvokulturologiya. Edward Sapir va Benjamin Lee Whorf (XX asr)

Edward Sapir (1884–1939) – amerikalik tilshunos, antropolog va psixolog bo'lib, u til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik haqida muhim tadqiqotlar olib borgan. Uning fikrlari milliy-madaniy manzara (lingvokulturologiya) bilan bevosita bog'liq bo'lib, tilning inson tafakkuriga ta'siri va madaniyat shakllanishidagi roli masalalarini o'z ichiga oladi. Sapirning fikriga ko'ra, til – insonning dunyo haqidagi tasavvurini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Har bir xalq o'z ona tilida dunyoni o'ziga xos tarzda ifodalaydi va tushunadi. “Til – bu nafaqat fikr almashish vositasi, balki u insonning dunyo haqidagi idroki va madaniyati bilan bog'liq bo'lgan murakkab tizimdir.”¹⁰ Sapirning shogirdi Benjamin Lee Whorf bilan birgalikda ilgari surgan nazariyalardan biri lingvistik nisbiylik gipotezasi (Sapir-Whorf gipotezasi) bo'lib, bu g'oya milliy-madaniy manzara tadqiqotlari uchun juda muhim. “Biz dunyoni faqat mavjud bo'lgan tillarimiz doirasida idrok qilamiz, chunki til inson tafakkurining asosiy shakllanish omilidir”.¹¹

Sapirning fikricha, til – bu xalqning madaniy kodidir, ya'ni xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashi til orqali shakllanadi. Uning fikridan kelib chiqadigan bo'lsak, ba'zi tillarda hurmat ifodalovchi grammatik shakllar keng tarqalgan.

Masalan: O'zbek tilida: “Siz”, “janob”, “muhtaram” kabi so'zlar.

Ingliz tilida: darajaviy hurmat so'zlari (mister, sir, honourable) mavjud. Bundan tashqari ingliz tilida individualizm va aniq ifoda ustuvor hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida “I” (men) har doim katta harf bilan yoziladi.

Sapir yana shunday deydi: “Til shunchaki aloqa vositasi emas, balki u xalqning butun madaniy va ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi ramziy tizimdir.”¹²

V. Zamonaviy lingvokulturologiya va milliy-madaniy manzara tadqiqotlari

V.I.Karasik – “Lingvomadaniy manzara” tushunchasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan va uni milliy ong va mentalitet bilan bog'lagan.¹³ Vladimir Ivanovich Karasik – taniqli rus tilshunosi, lingvokulturologiya, diskurs tahlili va konseptual tadqiqotlar bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biri. U lingvomadaniy manzara (языковая картина мира), konseptual tahlil, diskurs va kommunikativ uslublar sohalarida tadqiqotlar olib borgan. Karasikning fikricha, har bir xalqning “lingvistik olami” mavjud bo'lib, u milliy mentalitet, tarix, ijtimoiy hayot va

⁸ Al-Farobiy. Aql va til haqida risola (X asr)

⁹ Humboldt, W. von. (1836). Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues.

¹⁰ Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace & Company.

¹¹ Sapir, E. (1931). Conceptual Categories in Primitive Languages. Journal of Social Psychology, 2(3), 33–47.

¹² Sapir, E. (1933). Language and Culture. American Anthropologist, 35(1), 23–50.

¹³ Manba: Karasik, V. I. (2004). Yazykovoy krug: lichnost', kontsepty, diskurs. Moskva: Gnozis.

madaniyat bilan bog‘liq. U milliy-madaniy manzarani shakllantiruvchi elementlar qatoriga konseptlar, metaforalar, ramzlar va kommunikativ uslublarni kiritadi.

Y.S.Stepanov – “Konseptual olam” nazariyasida milliy tafakkur va dunyo manzarasi tushunchalarini bayon qilgan. Yuriy Sergeyevich Stepanov – taniqli rus tilshunosi, semiotik va lingvokulturologiya sohasidagi yetakchi tadqiqotchilardan biri. U “konseptual olam” (концептуальный мир, концептосфера) nazariyasini ilgari surgan va milliy tafakkur hamda madaniyatni tildagi konseptlar orqali o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Y.S.Stepanovning fikricha, “konseptual olam” bu inson tafakkurida mavjud bo‘lgan tasavvurlar, ma’no tuzilmalari va bilimlar tizimi bo‘lib, u til vositasida shakllanadi va ifodalanadi. Boshqacha aytganda, har bir jamiyatning o‘ziga xos “konseptlar to‘plami” mavjud bo‘lib, bu to‘plam orqali ular dunyoni tushunadilar va ifodalaydilar.¹⁴

A.Vejbitskaya – Tilda milliy madaniyat va mentalitet aks etishini ta’kidlagan. Anna Wierzbicka (Vejbitskaya) – taniqli tilshunos, semantik tahlil va lingvokulturologiya sohasida yetakchi olimlardan biri. U Natural Semantic Metalanguage (NSM) nazariyasi asoschisi bo‘lib, turli tillar va madaniyatlarda mavjud bo‘lgan konseptlarni universal asoslar orqali izohlashga harakat qilgan. Wierzbickaning eng muhim yondashuvi bu “Tabiiy Semantik Metatili” (Natural Semanthic Metalanguage) bo‘lib, u barcha tillar uchun umumiy bo‘lgan asosiy semantik birliklar mavjudligini ta’kidlaydi. Har bir til va madaniyatning o‘ziga xos konseptual olami bo‘lsa-da, barcha tillar asosiy universal tushunchalar (semantic primes) orqali bog‘langan. Masalan, “yaxshi”, “yomon”, “bilish”, “o‘ylash”, “xohlamoq” kabi tushunchalar har qanday tilda mavjud. Bularni Vejbtskaya “universal semantik birliklar” deb ataydi va ularning tilga bog‘liq bo‘lmagan umumiy ma’nolari borligini isbotlaydi.¹⁵ Vejbtskaya til va madaniyatni ajralmas deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, har bir tilda ma’lum bir milliy tafakkur modeli mavjud. Shu sababli, har bir xalq dunyoni o‘ziga xos tarzda tushunadi va uni o‘z tilida ifodalaydi. Masalan, ingliz tilida “privacy” (shaxsiy hayot daxlsizligi) konsepti muhim bo‘lsa, o‘zbek tilida “mehmondo‘stlik”, “katta-kichiklik hurmati” kabi tushunchalar asosiy qadriyat sifatida shakllangan. Shuning uchun, tarjima jarayonida ba’zan ma’lum bir so‘zning ekvivalenti bo‘lmaydi, chunki u tildagi milliy madaniy konnotatsiya bilan bog‘liq bo‘ladi.¹⁶

Jadval 1. Sapir va boshqa olimlarning milliy-madaniy manzara haqidagi taqqoslashi

Olim	Nazariya	Asosiy xususiyat
E. Sapir	Lingvistik nisbiylik	Til inson tafakkurini shakllantiradi
B. Whorf	Lingvistik determinizm	Insonlar dunyoni o‘z tillari orqali ko‘radi
A. Wierzbicka	Natural Semantic Metalanguage (NSM)	Har bir til universal tushunchalarga ega
Yu. S. Stepanov	Konseptual olam	Tilda madaniy konseptlar aks etadi
V. I. Karasik	Lingvomadaniy manzara	Til va mentalitetning o‘zaro bog‘liqligi

¹⁴ Stepanov, Yu. S. (2001). *Konstanty. Slovar russkoy kultury*. Moskva: Akademiya.

¹⁵ Wierzbicka, A. (1996). *Semantics: Primes and Universals*. Oxford University Press.

¹⁶ Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures Through Their Key Words*. Oxford University Press.

E. Sapir va boshqa jaxon tilshunoslarining milliy-madaniy manzara haqidagi fikrlari lingvistik nisbiylik nazariyasiga asoslanadi. Unga ko'ra biz quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

- Til - xalqning dunyoqarashi va madaniy tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omil.
- Har bir xalq dunyoni o'z tilidagi semantik tuzilmalar orqali idrok qiladi.
- Milliy-madaniy manzara tilga bog'liq bo'lib, u xalqning qadriyatlari va ijtimoiy hayotini aks ettiradi.

Yuqorida biz turli davrlarda "Olaning milliy-madaniy manzarasi"ni yaratilish va tushunish tarixini o'rgangan holda quyidagi tushunarli jadvalni havola keltirishga qaror qildik.

Bosqich	Davr	Asosiy G'oya	Asosiy Olimlar	Manba
Antik davr	Mil. av. IV asr	Til va tafakkur o'zaro bog'liq	Platon, Aristotel	<i>Platon - "Kratil", Aristotel - "Organon"</i>
O'rta asrlar	IX-X asr	Til inson tafakkuri va madaniyatini shakllantiradi	Ibn Sino, Al-Farobiy	<i>Ibn Sino - "Kitob ash-Shifo", Al-Farobiy - "Aql va til haqida risola"</i>
Yangi davr	XVIII-XIX asr	Til milliy tafakkurning asosiy omili	V. fon Gumboldt	Humboldt - "Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues" (1836)
XX asr	XX asr	Lingvistik nisbiylik va konseptual olam nazariyasi	E. Sapir, B. Whorf, Y. Stepanov	<i>Sapir - "Language: An Introduction to the Study of Speech" (1921), Whorf - "Language, Thought, and Reality" (1956), Stepanov - "Konstanty" (2001)</i>
Hozirgi davr	XXI asr	Lingvomadaniy maydon va milliy-madaniy kodlar	V. I. Karasik, A. Wierzbicka	<i>Karasik - "Yazykovoy krug" (2004), Wierzbicka - "Semantics, Culture, and Cognition" (1992)</i>

O'zbek tilshunosligida ham milliy-madaniy manzara masalasi lingvokulturologiya, konseptologiya, semantika va psixolingvistika doirasida o'rganib kelinmoqda. Bu sohada o'zbek tilshunoslari xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, milliy qadriyatlari va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish orqali muhim ilmiy xulosalar bergan.

O'zbek tilshunosligida milliy-madaniy manzaraning tadqiq etilishi

Olim	Asosiy g'oyalari	Asar(lar)i
Sh. Sirojiddinov	Til va madaniyat o'zaro bog'liqligini o'rganib, milliy tafakkur va mentalitetni aks ettiruvchi til birliklarini tahlil qilgan.	<i>Til va madaniyat</i> (2006)
G'. Abdurahmonov	O'zbek tilining semantik tizimi va uning madaniy xususiyatlarini o'rgangan.	<i>Tilshunoslik asoslari</i> (1993)
U. Tursunov	O'zbek tilida konseptual tahlil va	<i>O'zbek tilining konseptual</i>

	assotsiativ maydonlarni o'rgangan.	<i>maydoni</i> (2010)
N. Mahmudov	O'zbek tilining milliy-madaniy semantikasi va mental xaritasi haqida tadqiqotlar olib borgan.	<i>O'zbek tilining semantik tizimi</i> (2013)
M. Qosimov	Tilning milliy xususiyatlari, ma'naviy qadriyatlar va frazeologik birliklar orqali ifodalanishini tahlil qilgan.	<i>Til va tafakkur</i> (2015)

Sh.Sirojiddinov o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya va milliy tafakkur masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimlardan biridir. U til va madaniyat o'zaro bog'liq hodisalar ekanligini ta'kidlab, milliy-madaniy manzara tilda qanday aks etishini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, milliy-madaniy manzara quyidagi asosiy jihatlar orqali shakllanadi:

Til - milliy tafakkurning ifodasi. Har bir xalqning tili uning madaniy va tarixiy xotirasi bilan bog'liq bo'lib, milliy tafakkur va dunyoqarashni shakllantiradi. Masalan, o'zbek tilida "mehmondo'stlik", "odoblilik" kabi tushunchalar xalqning qadriyatlari bilan uzviy bog'liq. Mentalitet va milliy xarakter tildagi aks ettiruvchi omil

Har bir xalq o'z tilida dunyo manzarasini o'ziga xos tarzda aks ettiradi. O'zbek tilida qarindoshlik atamaları, hurmat va ehtiromni ifodalovchi so'zlar juda ko'p bo'lishi milliy mentalitetni aks ettiradi.

Madaniy kodlar va semantik maydonlar. Sh. Sirojiddinov o'z tadqiqotlarida milliy-madaniy kodlar tushunchasiga alohida e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, xalqning tilda aks etgan madaniy kodlari - urug'-aymoq tuzilishi, ijtimoiy munosabatlar, rasm-rusumlar, diniy va e'tiqodiy qarashlar bilan bog'liq belgilar tizimi hisoblanadi.¹⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. Oxford University Press.
2. Sapir, E. (1921). *Language: An Introduction to the Study of Speech*. Harcourt, Brace & World.
3. Whorf, B. L. (1956). *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*. MIT Press.
4. Duranti, A. (1997). *Linguistic Anthropology*. Cambridge University Press.
5. Kibrik, A. A. (1996). *Linguistic Typology and Cognitive Linguistics*. Moscow State University Press.
6. Leontiev, A. N. (1975). *The Psychological Foundations of Language*. Moscow University Press.
7. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and Language*. MIT Press.
8. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Brill.
9. Zhabayeva, D. T. (2008). *Lingvokulturologiya: Teoriya i Praktika*. Almaty: Kazakh University Press.
10. Sokolova, N. S. (2004). *Lingvoassotsiativnyy analiz kak metod izucheniya yazyka i kultury*. Moscow State University Press.

¹⁷ Sh.Sirojiddinov, "Til va madaniyat" (2006)